

ENDEMIK KASALLIKLAR KELIB CHIQISH SABABLARI, MEXANIZMI, DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI

Mualliflar : 1-davolash ishi fakulteti talabalari

Abdurasulova Nilufar
Vahobjonova Guljahon
Shodiyeva Sarvinoz
Yigitaliyeva Madina

Annotatsiyasi: *Ushbu maqola davomida endemik kasallik kelib chiqish sabablari ,bu kasallik tufayli organizmda bo'ladigan o'zgarishlar,klinik manzarasi,tasniflanishi,davolash va profilaktika chora tadbirlari ,kasallik xavfini oshiruvchi bir nechta omillar haqida to'xtalib o'tiladi.*

Annotation: *In the course of this article, it will be discussed about endemic disease, its causes, changes in the body due to this disease, clinical picture, classification, treatment and preventive measures, several factors that increase the risk of the disease.*

Kalit so'zlar: *endemik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar,infeksiyalar , endemik kasallik turlari, endemik buqoq kasalligi , endemik kasalliklarni davolash chora-tadbirlari .*

KIRISH

Endemik kasallik - bu ma'lum bir hududga xos bo'lgan kasallik. Ko'pincha atrof-muhitdagi har qanday kimyoviy element tarkibining keskin yetishmasligi yoki ortiqcha bo'lishi bilan bog'liq. O'simliklarda, hayvonlarda va odamlarda rivojlanishi mumkin. Masalan, oziq-ovqatda yod tanqisligi bilan hayvonlar va odamlarda oddiy bo'qoq (endemik zob) paydo bo'ladi, ftor - karies, uning ortiqcha bo'lishi bilan - florozi, tuproqda selenning ko'pligi bilan - zaharli selen florasining paydo bo'lishi va boshqa ko'plab endemiklar.

Etiologiyasi.

Infeksiyalar endemik bo'lishi mumkin, ularning patogenlari doimiy ravishda ma'lum bir hududda yashaydi (saqlanadi) - masalan, Qozog'istonda kemiruvchilar orasida vabo enzootikasi, Hindistonda vabo endemiyasi yoki subtropik Afrikadagi bezgak. Kasalliklarning endemikligini yuqumli kasalliklarning o'xshash, ammo har xil tabiiy o'choqlari bilan aralashtirib yubormaslik kerak, ma'lum bir hududda yuqumli qo'zg'atuvchining mavjudligining turlararo yoki abiotik mexanizmining evolyutsion kelib chiqishi bilan bog'liq.

Klinik manzarasi.

Iqlim o'zgarishi tez o'zgaruvchan ob-havo sharoitlariga, xususan, qurg'oqchilikka imkoniyat yaratishi tufayli, hayvonlar va odamlar o'z xatti-harakatlarini o'zgartirmoqda.

Yod miqdori yetishmasligi turli qalqonsimon bez kasalliklarini keltirib chiqaradi. Bu kasallikning yurtimiz hududidagi eng keng tarqalgan turi endemik bo'qoq bo'lib, asosan, yosh bolalar, o'smirlar, homilador hamda emizikli ayollarda ko'p uchraydi.

Bez faoliyatining pasayishi, yod miqdorining yetishmasligi quyidagi salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi:

1. Homiladorlikda og‘ir asoratlarga sabab bo‘ladi:

Homilada miya rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi;

Umuman, homila o‘sishi va rivojlanishida orqaga qolish;

Bola tashlash va bolaning muddatidan oldin tug‘ilishi;

O‘lik chaqloqning yoki aqliy va jismoniy jihatdan zaif, nogiron bolaning dunyoga kelishi.

2. Bolalarda o‘sh jarayonini kechikishi va aqliy qobiliyatni pasayishi;

3. Yurak-qon tomir kasalliklari;

4. Gipertoniya;

5. Gipotoniya;

6. Ateroskleroz;

7. Oshqozon-ichak kasalliklari;

8. Qabziyat va ich ketishi;

9. Asab tizimi faoliyati buzilishi;

10. Depressiya;

11. Jinsiy bezlar faoliyati susayishi;

12. Suyaklar rivojlanishining pasayishi;

13. Past bo‘ylik va osteoporoz;

14. Ayrim holatlarda bu xastalik qalqonsimon bezda saraton bo‘lmagan va yoki saraton o‘simtalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

15. Hatto yod tanqisligining eng yengil shaklida ham mintaqa aholisining intellektual salohiyati 15-20 foizga kamayadi.

Tasniflash.

Shvetsiyalik narkolog Niels Bejeruth individual moddalarga qaramlikning tarqalishi bilan bog‘liq endemiyalar haqida gapirdi. Bunday endemiklarga misollar alkogolizm yoki chekish qaramligi bo‘lib, u ma‘lum mamlakatlar yoki joylarda aholining muhim qismiga ta‘sir qiladi.

Endemiklar yoki endemlar (yunoncha *ëndēmos* - mahalliy) -har qanday flora, faunaning o‘ziga xos tarkibiy qismi. Endemiklarga hayvonlar va o‘simliklarning turlari, avlodlari, oilalari yoki boshqa taksonlari kiradi, ularning vakillari kichik geografik hudud bilan ifodalangan nisbatan cheklangan hududda yashaydilar . O‘simliklar va hayvonlarning endemik turlari cheklanganligi va shuning uchun sonining cheklanganligi sababli ko‘pincha Qizil kitoblarga noyob yoki yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlar sifatida kiritilgan.

Davolash.

Xastalikning oldini olish va davolash:

1. Endemik bo‘qoqning oldini olish hamda davolashning eng samarali, eng oson va arzon usuli – bu yodlangan osh tuzi iste‘moli;

2. Yod preparatlaridan iste‘mol qilib borish (shifokor tekshiruvidan so‘ng);

3. Yod miqdori okean baliqlarida juda yuqori. Yod tanqisligiga qarshi kurashish uchun Tinch okeani mahsulotlarining konserva ko‘rinishidan yeb turish lozim. Biroq ilmiy

tekshiruvlardan ma'lum bo'lishicha, Amudaryo va Sirdaryo suv havzalaridan tutilib iste'mol qilinadigan baliqlarda yod miqdori juda kam.

Xurmo va yong'oq bo'qoqning oldini oladimi?

100 gramm xurmoda atigi 2,8 mkg, yong'oqda esa 4,6 mkg yod borligi ma'lum bo'lgan. Yod kam mintaqada yashaganligimiz tufayli yurtimizda yetishtiriladigan meva, sabzavot, dukkakli ekinlar, suv va tuproq tarkibida ham bu modda kam bo'lib, organizmning yodga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi.

Yoshlarimizning benuqson, sog'lom rivojlanishida, homilador ayollar farzandlarini bekam-u ko'st dunyoga keltirishlarida qalqonsimon bez gormonlarining ahamiyati nihoyatda katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA SAYTLAR:

A.G.Gadayev Ichki kasalliklar propodevtikasi darsligi

[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Endemiya_\(Endemik_kasalliklar\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Endemiya_(Endemik_kasalliklar))

<https://sof.uz/uz/post/endemik-bo-qoq-salbiy-oqibatleri-oldini-olish-va-davolash>